

YOSH AVLOD MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA VA MAHALLANING MAS'ULIYATI

Ilimjon Abduxamjonovich Adbumalikov,

Andijon davlat universiteti

Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrası,

PhD, dotsenti

Annotatsiya. Ushbu ishda yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish jarayonida ota-ona va mahallaning o'rni hamda mas'uliyati keng yoritiladi. Yoshlarning barkamol shaxs bo'lib yetishishida oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy muhitning ta'siri muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlari, ota-onalar bilan hamkorligi hamda yoshlarni yot g'oyalardan asrashdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yosh avlod, ma'naviyat, tarbiya, ota-ona mas'uliyati, mahalla, oilaviy muhit, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, barkamol shaxs, hamkorlik.

Аннотация. В данной работе подробно освещаются роль и ответственность родителей и махалли в процессе формирования духовности подрастающего поколения. В качестве важного фактора становления молодёжи гармонично развитыми личностями анализируется влияние семейного воспитания, национальных ценностей, традиций и социальной среды. Также рассматриваются воспитательный потенциал института махалли, его сотрудничество с родителями и роль в защите молодёжи от чуждых идей. В статье представлены предложения и рекомендации по формированию здоровой духовной атмосферы.

Ключевые слова: подрастающее поколение, духовность, воспитание, ответственность родителей, махалля, семейная атмосфера, национальные ценности, социальная среда, гармонично развитая личность, сотрудничество.

Abstract. this paper extensively covers the role and responsibility of parents and the mahalla in shaping the spirituality of the younger generation. The influence of family upbringing, national values, customs, and the social environment is analyzed as a key factor in the development of youth into well-rounded individuals. It also examines the educational potential of the mahalla institution, its cooperation with parents, and its role in protecting young people from foreign ideologies. The article offers suggestions and recommendations for creating a healthy spiritual environment.

Keywords: younger generation, spirituality, upbringing, parental responsibility, mahalla, family environment, national values, social environment, well-rounded individual, cooperation.

Kirish. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida islohotlar hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning barkamol bo'lib yetishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni voyaga yetkazishga intilish xalqimizga xos milliy xususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo'lib voyaga yetadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida oila, mahalla va yoshlar ma'naviyati masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev asarlarida yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda ota-ona va mahalla

hamkorligining ahamiyati alohida ta'kidlangan. V.Ziyomuhamedov, S.Ziyomuhamedova, S.Qodirova, S.Otamurodov, S.Xusanov hamda M.Imomnazarovlarning ilmiy ishlarida ma'naviyat, oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar va shaxs kamoloti masalalari nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila, farzand tarbiyasi va yoshlar masalalariga oid normalar mustahkamlangan bo'lib, ular yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashning huquqiy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona va mahalla institutining o'rnini oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Shuningdek, ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik qarashlar tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati yoritib berildi.

Tahlil va natijalar. Oilaviy ma'naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a'zolarining muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lishi ular o'rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma'naviy fazilatlarini er-xotinlik munosabatlarining sharqona an'analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma'naviy olami o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, muvofiqlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhimdir.

Bunday qadriyatlarning oilada e'zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma'naviy muhitni yaratadi. Bu esa o'sib kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o'ta muhimdir. Shu asosda har bir oila a'zosining iste'dodi va salohiyati to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma'naviyat maskani sifatida shakllanib boradi.

Oila tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o'taydi. Har bir ota-ona o'z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta'minlaydigan hamma xususiyatga to'liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O'z bolangni o'zing asra" degan da'vat faqat quruq shior bo'lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya'ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas'uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo'yish vaqti keldi, deb o'ylayman".

Haqiqatan ham har bir ota-ona o'z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizni tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma'naviy sog'lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o'rganish, kitob

o'qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o'qishga qiziqtirish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o'z mas'uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim.

Oilada sog'lom muhit mavjud bo'lgandagina, ularda har tomonlama sog'lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog'lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila ma'naviyatining tutgan o'rni alohidadir.

Oila tarbiyasi bo'yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islomta'limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta'kidlanadi: "Islomda tarbiya ta'limdan ko'ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o'ziga bo'ysundirishdek og'ir ishni yo'lga qo'ydi.

Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko'rsa, shunga taqlid qilib o'sadi. Oilada ota olijanob keng fe'l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo'lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg'amaydigan va muloyim bo'lmog'i lozim.

Farzandlarimizni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan.

Rasululloh sallallohu alayhivassalam "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, otda choptirishni o'rgatinglar" deb farzandlaringizni chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatni targ'ib qildilar" (Termiziy va Abu Dovud rivoyatlari). Zeroki sog'lom va baquvvat farzand hamma joyda ham o'z yurtiga naf keltiradi.

Oilada ayniqsa, qiz bola tarbiyasiga e'tabor berish asosiy o'rin egallaydi. Qiz ularni ilm-hunar o'rganishga yo'naltirish ham ota-onaning vazifasi hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha sharoitlar yaratib berilgan va bundan keyin bu masalaga kengroq e'tabor berish borasida bir qancha vazifalar belgilab qo'yildi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan nutqida "Qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dod va qobiliyatini iyuzaga chiqarish ular orasida haqiqiy etakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish kerak" deb ta'kidlab o'tdilar.

Shunday ekan, qizbolaga eng qimmatli an'analar halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehnatsevarlikka bu insoniy fazilatlar dastlab oila davrasida shakllanadi.

Oilaning har bir a'zosi millatning davomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma'naviyat maskanidir.

Insonning shaxs bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiyligini

davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

Bugungi kunda uyushmagan yoshlarni oila muhitida ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ular orasidagi mavjud illatlarni bartaraf etishda e'tabor qaratish foydadan xoli bo'lmaydi:

1. Oila ma'naviyatini yuksaltiruvchi tizimlar faoliyatini yanada yaxshilash
2. Qiz bola tarbiyasi uchun milliy qadriyatlar va an'analarimiz asosida yangi tartiblarni joriy etish

3. Jismoniy madaniyat masalasini oilaviy qadriyatlar darajasiga olib chiqish.

Shunday qilib, yosh avlod ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar, yoki ma'naviy hayot mezonlari deganda nimani tushunish kerakligi haqida birinchi Prezidentimizning kitobida aniq ko'rsatmalar berilgan. "**Mezon**" tarozu degani, ya'ni aniq o'lchov, meyor, Yevropa terminologiyasida "kriteriy". Demak, biz yoshlarning ma'naviy tarbiyasida nimalarga tayanishimiz kerak, yoshlarga kimlarni ibrat qilib ko'rsatishimiz durust bo'ladi, qaysi o'lchov, qanday meyorlarni asos qilib olishimiz lozim – bular hammasi kitobda aniq ko'rsatib, nomma-nom sanab berilgan. Bular – ulug' ajdodlarimiz yaratgan ulkan va qutlug' ma'naviy (ilmiy, badiiy, falsafiy) meros, ularning ibratli hayotlari, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimizda ifodalangan **buyuk va boqiy haqiqatlar, yuksak tuyg'ular**

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabi'atga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi

Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Ana shu

xususiyatlar rivojlanib, insonning ijtimoiy voqelik, mehnat, kishilar va jamiyatga bo'lgan munosabati ma'lum bosqichga etgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida barkamol shaxsni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunday shaxs o'zida aqliy etuklik, axloqiy poklik, jismoniy barkamollik va estetik mukammallikni mujassamlashtirishi, ma'naviy olamini milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida qaror toptirishi, ma'naviy fazilatlarini har tomonlama rivojlantirib borishi lozim.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir nuqtai nazaridan tarbiya doimo maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda, aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi. Tarbiya insonni muayyan ijtimoiy zaruriy bilimlar majmui, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uni hayotga va mehnatga, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlariga rioya qilishga, kishilar bilan muomala qilishga, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni nazarda tutadi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga "kirishadi" va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Oila bolaning yuragiga yaqin tarbiyachidir. Bola ota-onasiga ishonadi. Shuning uchun ham ma'lum davr mobaynida ota-ona bola uchun turmush haqida fikr yurituvchi kishilarga axloqiy baho beruvchi yo'lboshchi bo'lib hizmat qiladi.

Konstitutsiyaning XIV bobida ham "Oila, bolalar va yoshlar" bobi alohida ajratib yozilgan. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar

Inson bolaligidan voyaga yetguniga qadar ota-ona yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tarbiyasida bo'ladi. Bola voyaga yetgach o'zi mustaqil oila quradi.

Odam qaysi oilada bo'lishidan qat'iy nazar unga sadoqatli bo'lib qolishi zarur. Ayniqsa oila a'zolarini o'z xonadoniga sodiqligi bilan bir qatorda shu oilani or nomusi uchun kurashmog'i zarur.

Inson o'z hayotida hamma vaqt oilaga, vataniga do'st, birodariga sadoqatli bo'lishi lozim. Inson shu xonadondan qarindosh urug'lardan uzoqlashadi. Bunday odam vataniga ham, do'stlariga ham sadoqatsiz darbadar bo'lib yetishadi.

Do'stiga sodiq bo'lmagan insonni beqadr bevafo deb ataydi xalqimiz. Bunday odam hech qachon bahtli bo'la olmaydi.

Oila boshlig'ini hurmati joyida bo'lib, o'z oila a'zolariga munosib rahbarlik qila olsagina oilda tartib intizom mehnat va o'zaro hurmat va odob axloq joyida bo'ladi.

Mahalla-kuy ham bu oilani hurmat bilan tilga oladi. Bunday xonadonda o'g'il qizlar odobli elga manzur kishilar bo'lib yetishadi. Oila mustaxkam va o'bro'si o'z o'rnida bo'lib oilaning iqtisodiy ahvolini yaxshilamog'i, uning daromadini to'g'ri taqsimlamog'i lozim.

Xulosa. Biz yuqorida oilani mitti mamlakatga o'xshatdik. Har qanday mamlakatni boshlig'i bo'lganidek oilani o'z boshlig'i bo'ladi. Odatda oila boshlig'i otadir. Ota bo'lmagan oilada esa ona, ota va ona bo'lmagan oilada esa katta aka opa yoki boshqa oila a'zolari boshliq sanaladi. Oila boshlig'i kim bo'lishidan qat'iy nazar, uning so'zlari oila azolari uchun qonundir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “O'zbekiston” 2023
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini tahminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent., “O'zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent., “O'zbekiston”, 2017.
4. Ziyomuhamedov V., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. –T.: O'zbekiston nashriyoti, 2000 yil.
5. Otamurodov S., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2003 yil.
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2006 yil.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934